

Erkin A'zamning sujet va kompozitsiya yaratish mahorati

(“Shovqin” romani asosida)

Sam DU Adabiyotshunoslik mutaxassisligi

II bosqich magistranti Eldor Xudoyberdiyev

Ilmiy rahbar f.f.d., prof. Shavkat Hasanov

O'zbek adabiyotida o'z o'rniga, o'z uslubiga ega adib Erkin A'zam asarlari ko'plab kitobxonlarning e'tiboriga va e'tirofiga sazovor bo'lganligi bejiz emas. Buning boisi Erkin A'zam asarlarida voqealar tizimi hamda kompozitsion qurilish o'ziga xos uslubda mahorat bilan yaratilganki, beixtiyor o'quvchi u hikoya, qissa, kinoqissa yoki roman bo'ladimi boshqacha bir qiziqish, ishtiyoq bilan o'qiydi.

Adibning “Shovqin” romanini birinchi marta o'qigan o'quvchi voqealar tizimi tartibini adashtirib qo'yayotgandek bo'ladi va o'qish davomida o'ylay boshlaydi: birinchi hikoya qilinayotga voqea avvalroq sodir bo'lganmikan yoki ikkinchi voqeami? Tushunib yetganingizda ba'zi o'rinda birinchi voqea ikkinchi voqeadan keyin, ba'zi o'rinda avval sodir bo'lgan bo'ladi. Ayrim voqealar ketma-ketlikda sodir bo'layotganga o'xshaydi, aslida unday bo'lmaydi.

Asar boshlanishida bosh qahramon Farhod Ramazon (Fidel Mirzayevich Ramazonov) qachonlardir orasiga Vika va boshqa majoralar tufayli sovuqlik tushgan Ravshan Akobirovdan, bir oylardanlarga so'ng Vikaning o'zida elektron xat oladi. Unga ko'ra Farhod Ramazonning “Ishq isyoni” asari Holivudda kino qilinadigan bo'lgan va “Qizlarning qorovuli” esa kinofestivalda sovrindorlar qatoridan joy olgan edi. Shu munosabat bilan qahramonimiz yo'lga tushadi va asardagi uchunchi bo'lim “Bepayon yurt” kinochilarining quyuq o'rmon qo'ynida joylashgan bu istirohat maskaniga yosh senariynavis Farhod Ramazonov ilk bor qadam qo'yishi edi”¹, - deb boshlanadi.

Kitobxon voqealarning bunday borishini kuzatarkan Farhod Ramazon o'sha elektron xatlarni olgandan so'ng shu yerga keldi deb o'ylaydi. Aslida esa bu yerga qahramonimiz ilk marta ancha yillar oldin kelgan bo'lib, yo'l-yo'lakay samalyotda

¹ Эркин Аъзам. Шовкин. Тошкент. «Узбекистон». 2011. 14 бет

boshidan kechirganlarini hayolidan o'tkazayotga bo'ladi. Keyinchalik asarni o'qish davomida o'quvchi buni anglab boraveradi.

Bu esa asar sujeti va kompozitsiyasining o'ziga xos, o'zgachaligi bilan bog'liq jarayondir. "Shovqin" romanida sujetning asosan uchta elementini ko'rishimiz mumkin: tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya. Biz o'rganib qolganimiz ko'plab asarlarda sujetning besh elementi: ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, echim mavjud bo'ladi va bu an'anaga aylanib qolgan. Erkin A'zam qo'llagan usul esa adabiyotimizda kam kuzatilgan jarayondir. Asar hech qanday tanishtiruvlarsiz, tasvirlarsiz birdaniga tugundan boshlanadi. Farhod Ramazon ikkita elektron xat oladi. Ularning biri Ravshan Akobirovdan, biri "o'sha-o'sha Vika"dan. Akobirovning xatida "*o'zimizning Farhod*"² (asarda ham shunday yozilgan) degan jumla ham bor edi. O'quvchida Akobirov kim? Vika kim? O'zimizning Farhod kim? kabi savollar paydo bo'ladi. Bu savollarga voqealar rivojida javob topib boraverasiz. Kulminatsiyada Farhod Ramazon qachonlardir butun borlig'i bilan sevgan Vika ("Ishq isyoni" ham shu sabab paydo bo'lgan), Vikani o'ziniki qilib olgan Akobirov va Vikadan bo'lgan o'g'li Farhod Farhodovich bilan uchrashadi va shu bilan roman yakunlanadi. Xulosa kitobxonning hukmiga havola qilinadi.

Asarda retrospektiv sujet turi qo'llangan bo'lib, bosh qahramon Farhod Ramazon samolyotda "tugundan kulminatsiyaga tomon yo'lga tushganda" ancha yillar oldin tugun bilan kulminatsiyaga sabab bo'lgan voqealarni xotirlaydi. Ana shu xotiralar voqealar rivoji hisoblanadi. Bu asosiy retrospeksiya bo'lib, asarda kichik-kichik retrospektivlar ham mavjud. Masalan, Sobirjon Mansurov Barfina Akobirova haqidagi voqeani Farhodga aytib beradi. Farhod esa bolaligida otasi bilan sodir bo'lgan voqeani eslaydi. Voqealar rivoji davomida ham juda ko'p obrazlar, xarakterlar, taqdirlar, konfliktlarni uchratishimiz mumkin. Toshpo'lat harbiydan qaytib, olis bir hududda o'ziga o'xshagan hayotda o'rmini topolmay yurganlar bilan qiyin bir sharoitda ishlab yuradi. O'sha yigitni eslaganda Farhod

² Эркин Аъзам. Шовкин. Тошкент. «Ўзбекистон». 2011. 5 бет

ba'zida achinadi, ba'zida nafratlanadi. Yoki hech kimi yo'q Farhodning Parizoda opasining taqdiri ham o'zi bir mavzu bo'ladi.

Badiiy asar sujet personajlarining "harakat"laridan tarkib topadi.³ Bu harakatlarga personajlarning makon va zamonda kechuvchi xatti-harakatlari, ruhiyatidagi o'y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji kiradi. Shunga ko'ra: a) tashqi harakat dinamikasiga asoslangan sujet va b) ichki harakat dinamikasiga asoslangan sujetlar ham mavjud. "Shovqin"da ikkalasini ham uchratish mumkin. Ammo asarda birinchisini ko'proq uchratamiz. Masalan, Farhodning sinarinavislikka bo'lgan ishtiyoqi, bu yo'lda bir qancha qiyinchiliklarga duchor bo'lishi, qulog'idagi shovqinni yo'qotish ilinjida qilgan amallari, kinochilar bilan bo'lgan voqealar, Akobirov, kursdoshi Sur'at, baynalminalchi chol Sobirjon Mansurov kabilar bilan qarama-qarshiliklar, bularning barchasi tashqi harakat dinamikasiga misol bo'ladi. Farhodning Vikani yo'qotgandan keyingi ruhiy holati ichki harakat dinamikasi mahsulidir.

Asar sujeti haqida gapirilganda konfliktni tilga olmaslikning iloji yo'q. Sujet bilan konflikt orasida ikkiyoqlama aloqa kuzatiladi: bir tomondan sujet konfliktlarni umumlashtirib namoyon qiladi, ikkinchi tomondan, konflikt sujetni harakatga keltiruvchi asosiy kuch sanaladi.⁴ Romanda konfliktning uchta turidan ham unumli foydalanilgan. Farhodning yuqorida keltirilgan obrazlar bilan qarama-qarshilikka borishi bu xarakterlararo konflikt hisoblanadi. Ammo Farhod ular bilan qanchalik ziddiyatga bormasin baribir ularni nimadir bir-biriga bog'lab turadi. Ayniqsa, kursdoshi Sur'at bilan bir-birini ko'rarga ko'zi yo'q, biroq ularni kursdoshlik majburiyatimi, boshqa bir rishtami bog'lab turadi. Sur'at Toshkentga kelganda, albatt, Farhodni ko'rib ketadi. Farhod ham xuddi shunday. Bu ham adib tomonidan ishlatilgan yangi usul desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Erkin A'zam "Shovqin"ning kompozitsiyasini ham o'z uslubiga monand noan'anaviy tarzda yaratgan. Ya'ni asarning bir butunligini saqlagan holda, uni bo'limlarga ajratadi va har bir bo'limga so'zlanadigan voqeaga mos sarlavha tanlay olgan.

³ Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. Sharq, 2002.

⁴ Qur'onov D. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. Sharq, 2002.

Darhaqiqat shunday, biz romanda birgina Farhodning boshidan kechirganlarilarinigina emas, balki ko'plab boshqa taqdirning ham hayoti bilan tanishamiz. Ya'nikim o'sha taqdirlar sobiq sovet hukumating bemani siyosati tufayli aziyat chekadi, hatto fojiaga uchraydi. Toshpo'lat ismli yigit qiyin bir sharoitda har tarafdin kelgan odamlar bilan ishlab yuradi va bir rus juvonini xotin qilib oladi. Farhod undan nima sababdan bu yerda yurganini so'raydi. Orden beramiz deyishdi deb javob beradi. – “Xo'sh ordenni oldingiz, keyin nima qilasiz?” – “Bilmasam”. U uyiga qaytgandan keyin uylanadi, rus xotin boshqa tarafga, Toshpo'lat boshqa tarafga ketadi. O'rtada bir o'zbek bolasi otasiz uzoq yurtlarda qolib ketadi, deb hayol suradi Farhod. Mana bu haqiqiy inson fojiasi emasmi? Bunday fojialar o'sha davrda hayotda ham ko'plab uchragan. Bunga tarix guvoh.

Xullas, asarda Farhod Ramazonning xotiralari bilan birga, shu asnoda sobiq sovet hukumatinin notog'ri siyosati, mustamlaka o'lkalarda yashayotgan xalqlarinin, jumladan o'zbek xalqining chigal taqdiri hikoya qilinadi. Hottoki rus xalqi ham bu siyosatdan jabr ko'rganli, ularnin ko'pchiligi o'z yurtida uzoqda qiynalib yashashga mahkum qilinganligini ko'rish mumkin. Bu voqealar shunchalik mahorat bilan tasvirlanganki, hech bir o'rinda bunga yaqqol ishora ko'rinmaydi. Buni asr voqealari jarayonida sezib boraveramiz.

Demak, romanning sujet va kompozitsiyasini o'rganar ekanmiz o'zbek adabiyoti yana bir qadam oldinga siljiganligiga guvoh bo'lamiz. Shunday ekan bu asar adabiyotimiz tarixidan muqim joy egallaydi, bundan keyin ham kelajak avlodlar tomonidan hali ko'p o'qiladi. Bu esa Erkin A'zam ijodiga bo'lgan qiziqishning oshishiga sabab bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Эркин Аъзам. Шовкин. – Т.: Ўзбекистон, 2011.
2. Бахтин М. Литературно-критические статьи: М.: Художественная литература, 1986.
3. Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Умунов Х. Адабиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2002.
5. Quronov D. Adabiyothunoslikka kirish. Т.: Fan, 2007.